

GLOBALIZATSIYA VA DINIY QADRIYATLARNING O'ZARO TA'SIRI

Sobirov Shohzod

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti

Samarqand filiali Kompyuter injiniringgi fakulteti KI-24-04 guruhi talabasi.

Samatov Xurshid

Ilmiy rahbar.

SAMARQAND-2025

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16787941>

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonining diniy qadriyatlarga ta'siri tahlil qilinadi. Diniy qadriyatlarning zamonaviy dunyoda o'z o'rmini saqlab qolish yo'llari yoritiladi. Global madaniyat va ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongiga ta'siri muhokama qilinadi. Muallif o'z shaxsiy pozitsiyasi orqali diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Globalizatsiya, din, qadriyat, ommaviy madaniyat, yoshlar, e'tiqod, ma'naviyat, axloq, islom.

Kirish

Globalizatsiya — bu zamonaviy dunyoning eng muhim va ta'sirchan jarayonlaridan biri bo'lib, u insoniyat taraqqiyotiga katta turki berayotganidek, ma'naviy va madaniy qadriyatlар tizimida ham jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Dunyodagi mamlakatlar, madaniyatlar, tillar, e'tiqodlar va qadriyatlар bir-biriga tobora yaqinlashib, "yagona axborot makoni"ga aylanmoqda.

Bu jarayon ko'plab imkoniyatlarni taqdim etayotgani rost, biroq ayni vaqtida u milliy o'zlik, diniy qadriyatlар, an'analar va axloqiy normalarning yemirilishiga olib kelayotgan holatlar ham talaygina.

Din — bu inson hayotining ichki kompassi, uni to'g'ri yo'nalishga boshlovchi ma'naviy kuchdir. Aynan din vositasidagina jamiyatda adolat, poklik, halollik, hamjihatlik kabi tamoyillar mustahkamlanadi. Shuning uchun, globallashuv fonida diniy qadriyatlар qanday holatda qolmoqda? Ular global madaniyat bilan qanday o'zaro ta'sirda? — degan savollar o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi. Bugungi kunda yoshlar ongiga kuchli ta'sir o'tkazayotgan g'arbcha ommaviy madaniyat va internet madaniyati diniy qadriyatlар bilan qanday muvozanatda? Ushbu maqolada ana shu savollarga javob izlaymiz.

Asosiy qism

Globalizatsiya va uning jamiyatdagi roli;

Globalizatsiya bu — dunyodagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning tobora kuchayib borishi, texnologiyalar, madaniyat va g'oyalar almashinuvining jadallahuvividir. Bu jarayon turli xalq va millatlarning urf-odatlari, qadriyatlari, diniy e'tiqodlariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Globalizatsiya texnologik qulayliklar, tezkor axborot almashinuvi, xalqaro integratsiya kabi ijobjiy imkoniyatlarni yaratgani bilan birga, mahalliy qadriyatlarning erib borishi, ommaviy madaniyatga bo'ysunish, o'zligimizdan uzoqlashish, dinsizlik kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Diniy qadriyatlар — insoniyatning ma'naviy poydevori;

Din inson ruhiyatini, axloqini, xulqini, yashash tarzini shakllantiradi. Islom dinida halollik, sabr, mehr, vijdon, poklik, adolat, ota-onaga hurmat, bolaga mehr kabi qadriyatlар har bir musulmon hayotining asosi sanaladi. Ayniqsa, yosh avlod

tarbiyasida dinning o'rni beqiyosdir. Din odamni nafaqat ibodatga, balki jamiyatda foydali bo'lishga, zulmga qarshi turishga, ezgulikka intilishga chaqiradi.

Globalizatsiyaning diniy qadriyatlarga ijobiy ta'siri;

Globalizatsiya orqali dunyo musulmonlari bir-biri bilan tezroq muloqot qilishmoqda, Qur'on, hadislar, diniy kitoblar elektron shaklda keng tarqalmoqda. Dunyoviy fanlar bilan bir qatorda islomiy fanlar ham zamonaviy texnologiyalar orqali o'rganilmoqda. Masalan, onlayn darslar, diniy maruzalar, forumlar, YouTube va Telegramdagi islomiy sahifalar diniy savodxonlikni oshirishda xizmat qilmoqda.

Globalizatsiyaning diniy qadriyatlarga salbiy ta'siri;

Ammo bu jarayonning salbiy tomonlari yanada chuqurroq va xavfliroqdir. Ayniqsa, yoshlar ongiga salbiy axborotlarning erkin kirib kelishi natijasida:

Dinsizlik (ateizm) kuchaymoqda;

Har xil «gender» mafkuralari (jinsiy betaraflik, transgenderlik) targ'ib qilinmoqda;

Ahloqsizlik, erkin jinsiy munosabatlar “trend”ga aylantirilmoqda;

Mahalliy urf-odat va diniy qadriyatlar zamonaviylik nomi bilan rad etilmoqda;

Ota-onaga hurmatsizlik, milliy g'urur va iftixor hissining pasayishi kuzatilmoqda.

Bugungi globalizatsiya jarayoni jamiyatga ko'proq salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Aynan globallahuv tufayli ateistlar ko'paymoqda, dinsizlik va axloqsizlik targ'ib qilinmoqda. Ommaviy madaniyat mahalliy qadriyatlarni yo'q qilmoqda, yoshlar ongini zaharlarimoqda. Har xil jinsiy orientatsiyalar targ'iboti, jinso'zgartirish, plastik operatsiyalar orqali insoniyat o'z tabiiy qiyofasidan chekinmoqda — bu holatlar islomiy qadriyatlarga mutlaqo ziddir.

Men globalizatsiyada ijobiy tomonlarni ko'rmayapman. Chunki bu jarayon orqali jamiyatda dinsizlik, jinsiy buzuqlik, axloqsizlik kuchaymoqda. Insonni bunday provokatsiyalardan faqat pok vijdon, to'g'ri e'tiqod va chuqur bilim asray oladi. Shuning uchun menimcha, dunyoviy va diniy ilmlarni birgalikda o'rgatish kerak. Ayniqsa maktablardan boshlab, bolalarda diniy savodxonlik, ma'naviy immunitet shakllanishi zarur. Shundagina jamiyat buzg'unchi g'oyalarga qarshi turadi.

O'zbekiston tajribasi;

O'zbekistonda diniy-ma'naviy tarbiya doimo ustuvor bo'lib kelgan. Ayni paytda ham diniy qadriyatlar ommaviy madaniyat ta'siridan himoyalanmoqda. Ammo bu yetarli emas. Diniy va milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga chuqur singdirish

zarur. Chunki ma'naviyatsiz texnologik taraqqiyot jamiyatni halokatga yetaklashi mumkin.

Xulosa

Globalizatsiya — bu zamonaviy dunyoning muqarrar oqimi. Ammo u jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatishi — bu bizning unga qanday yondashishimizga bog'liq. Agar biz diniy, milliy qadriyatlarni rivojlantirmasak, ularni zamonaviy usulda targ'ib qilmasak, bu qadriyatlar global oqim ostida yo'qolib ketishi mumkin.

Din va ma'naviyatni asrash — bu faqat ibodat emas, balki jamiyatni barqarorlashtirish, yoshlarni himoya qilish, kelajakni nurafshon qilishdir.

Globalizatsiyaga qarshi emas, lekin uning salbiy oqibatlariga qarshi immunitetli avlod tarbiyalash — bizning eng muhim vazifamizdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Qur'oni Karim va uning tarjimalari. – Toshkent: Hilol Nashr, 2014.
 3. Al-Qoradoviy Y. "Islom va zamonaviy sivilizatsiya". – Toshkent: Movarounnahr, 2007.
 4. Mavlonov A. "Dinshunoslik asoslari." – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
 5. Baxtiyorov S., To'xtaxujayev S. "Globalizatsiya va ijtimoiy taraqqiyot." – Toshkent: Fan, 2016.
 6. Xaitov A. "Yoshlar va global tahdidlar." – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
 7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
 8. Tohirov M. "Globallashuv va axloqiy qadriyatlar." – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
 9. Tohirov M. "Milliy o'zlik va diniy qadriyatlar." – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
- Internet manbalari:
10. [www.islom.uz](<http://www.islom.uz>)
 11. [www.globalization101.org](<http://www.globalization101.org>)
 12. [www.ma'naviyat.uz](<http://www.ma'naviyat.uz>)